

**BUXORO ERGONIMLARI SHAKLLANISHINING TARIXIY  
ASOSLARI**

**Rustamov Akbar Sayfulloyevich,**

*Buxoro viloyati hokimining davlat tili*

*masalalari bo'yicha maslahatchisi,*

*Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

*(O'zbekiston)*

e-mail: [akbar2683@umail.uz](mailto:akbar2683@umail.uz), [akbar.rustamov.1983@mail.ru](mailto:akbar.rustamov.1983@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Buxoro ergonimlari shakllanishining tarixiy asoslari keltirilgan. Buxoro tarixiy ergonimlari tasniflanadi. Tarixdagi ergonimlarning bugungi muassasa va tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo'llanilishi orqali ularning leksik, leksik –semantik xususiyatlari ochib beriladi. Ma'naviy ishoralar ochiq lanadi. Buxorodagi tarixiy ergonimlar mahsulotlar, ko'rsatiladigan xizmatlar, boshqa bir obyekt yoki subyekt, tarixiy-tadrijiy omillar asosida nomlanganligi ayonlashadi. Bu bilan tariximizning ajralmas qismi sanalgan ergonimlar orqali o'tmish zamon hamda makondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotning manzarasi ko'z o'ngimizda gavdalanishiga imkon yaratiladi.

**Tayanch tushunchalar:** ergonimlar, tarixiy ergonimlar, ergonimlarning shakllanishi, til hodisalarini diaxron va sinxron o'rganish, ergonimlarning boshqa onomastik birliklar bilan aloqalari.

**Аннотация.** В статье изложены исторические основы формирования бухарских эргонимов. Классифицированы исторические эргонимы Бухары. Через применение исторических эргонимов к современным учреждениям и хозяйствующим субъектам раскрываются их лексические и лексико-семантические свойства. Выявляются содержательные отсылки. Оказывается, исторические эргонимы в Бухаре были названы в зависимости от продукции, оказываемых услуг, другого объекта или субъекта, а также

*исторических и эволюционных факторов. Это позволяет нам визуализировать социально-политическую, экономическую и культурную жизнь прошлого посредством эргонимий, которые являются неотъемлемой частью нашей истории.*

**Ключевые слова:** *эргонимы, исторические эргонимы, образование эргонимов, диахроническое и синхроническое изучение языковых явлений, связи эргонимов с другими ономастическими единицами..*

**Abstrakt.** *This article presents the historical foundations of the formation of Bukhara ergonyms. Bukhara historical ergonyms are classified. Through the application of historical ergonyms to today's institutions and business entities, their lexical, lexical-semantic properties are revealed. Spiritual references are revealed.*

*It is revealed that historical ergonyms in Bukhara are named based on products, services provided, another object or subject, historical and developmental factors. This allows us to visualize the picture of socio-political, economic, and cultural life in the past and space through ergonyms, which are an integral part of our history..*

**Supporting concepts:** *ergonyms, historical ergonyms, the formation of ergonyms, diachronic and synchronous study of language phenomena, the relationship of ergonyms with other onomastic units.*

Movorounnahrning asosiy markazi sifatida Buxoroda savdo-sotiq, sanoat, ishlab chiqarish, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish taraqqiy etgan. Tabiiyki, shaharda ushbu yo'nalishga mo'ljallangan korxona va tashkilotlar faoliyat yuritgan. Tabiiyki bir-biriga turdosh va raqobatchi korxonalarning o'ziga xos va ustuvor jihatlarini ifoda etish zarurati paydo bo'lgan hamda ushbu hodisa muassasalar nomida aks etgan.

Shayboniylar sulolasi davrida Buxoroda juda ko'p obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Savdo jonlandi. Ilm-fan masalasida ancha muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatgan, maishiy xizmat ko'satish tarmoqlari rivojlangan. Toqi Sarrofon, Toqi Telpakfurushon, Toqi Zargaron, Timi Abdullaxon kabi savdo va xizmat ko'rsatgan.

Toqi Sarrofondada pul almashtirish vazifasi bajarilgan, Toqi Telpakfurushda telpak, Toqi Zargaronda zargarlik ishlanmalari bilan savdo qilingan. Timi Abdullaxonda turli ashyo, mahsulotlar sotilgan.

Mazkur obidalarni diaxron tahlil qilish jarayonida bu obyektlarni ergonim sifatida qarash mumkin, madrasalarning deyarli barchasi hozirgi kunda ergonim sifatida belgilanmaydi, bu bino va inshootlar obodonlashtirish yoki Madaniy meros obyektlarini himoya qilish boshqarmasi tasarrufiga o'tkazilgan. Mirarab, Xotin-qizlar madrasasi kabi inshootlar hozirgi kunda ham faoliyat yurgizmoqda. Toqlar va timlarda hozirda ham savdo munosabatlari amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, maxsus ergonim sifatida qaralmaydi.

Buxoroda joylashgan bozorlar umumiy savdo maydonlari, maxsus yopiq binolar, tim va toqlar, aniq, belgilangan mahsulotlar sotilishiga mo'ljallangan maydonchalar hamda karvonsaroylardan iborat bo'lgan. Chakana savdolar, ba'zi tovarlarni sotishga ixtisoslashgan joylarda amalga oshirilgan, ammo ko'tara savdo ishlari karvonsaroylarda va u yerda joylashgan hujralarda olib borilgan. Buxoroda faol xizmat ko'rtuvchi, faol savdo olib boruvchi joylar yo'llarning kesishgan joylarida joylashgan, bunday joylar ba'zi yerlarda Chorsu deyilgan, Buxoro shhrida bunday maskan Toq deb atalgan. Odatda, Chorsu deb nomlanuvchi savdo majmualari chorrahalarda joylashgan. Toqi Tirgaronda turli dehqonchilik uskunalari, pichoq, o'q-yoy va boshqa shunga o'xshash mahsulotlar sotilgan. Toqi Allofida un mahsulotlari bilan savdo qilingan.

Buxoro shahrining ichki savdosi uchun muhim bozorlardan biri Registonda bo'lgan. Unga turli mahsulotlar sotilgan. U yerdagi savdo maskanlari ham ayni mahsulotning nomi bilan yuritilgan, hozirgi kunda ham xuddi shunday atalib kelinadi. Bozori alaf, Bozori go'sfand, Bozori kord, Bozori non va boshqalar. Sadriddin Ayniy yozib qoldirganidek, qo'y, qo'zi (Bozori go'sfand), ot bozori (Bozori asp) shahar darvozasidan tashqariga kochirilgan. Katta masjid (Masjidi Kalon) va Mir Arab o'rtasida paxta bozori (bozori g'o'za) hamda pilla bozori (bozori pilla) ham faoliyat ko'rsatgan.

Buxoro va Buxoro ergonimlari haqidagi qimmatli ma'lumotlarni O.A.Suxareva "Buxoro.XIX asar va XX asr boshlarida" nomli 1966-yil nashr etilgan kitobida [9:214] jamlagan. U mazkur ma'lumotlarni bir qator boshqa xorijlik va mahalliy olimlar, sayyohlarning, diplomatik missiya vakillarining ma'lumotlari orqali jamlagan. U bunday ma'lumotlarni keltirishda dastlab N.Xanikov manbalariga tayangan Buxorodagi rus tarjimoni P.Yakovlev keltirgan dalillarga asoslanadi. P.Yakovlev Buxoroning xaritasini tuzib chiqqan, unda davlat xizmatchilaridan tortib, to xususiy sektorgacha bo'lgan joylarning xaritasini keltirib o'tadi.

Xanikov Buxoroga sayohati davomida o'ttiz sakkizta karvonsaroy mavjud bo'lgani, ulardan yigirma to'rttasi tosh va g'ishtdan, o'n to'rttasi yog'ochdan qad rostlaganini aytadi. Kapitan Fenin bunday karvoysaroylarni XX asr boshlarida oltmishta ekanligini yozib qoldirgan bo'lsa, M.S.Yusupov yetmishdan oshganligini qayd etadi va ularning nomlarini ham keltirib o'tadi: Saroyi Jannat makoni, Saroyi domullo Sher, Saroyi Hakim oyim, Saroyi Xonayi kalon, Saroyi podshohi(Saroyi qushbegi, Saroyi qozi kalon), Saroyi shonataroshi, Saroyi Mirzoqul, Saroyi Qarshi, Saroyi sanduq, Saroyi Matatillo, Saroyi Badriddin, Saroyi chiti chatti, Saroyi G'ulomjon, Saroyi latta, Saroyi Sayfiddin, Saroyi Barri ko'hna, Saroyi Rashid, Saroyi Jo'rabek, Saroyi Xo'jayi xurd, Saroyi Hindi, Saroyi Barri nay, Saroyi qushbegi, Saroyi Sindil, Saroyi no'g'ay, Saroyi karvonboshi, Saroyi Kapkoz (oldin Saroyi Hindi deb atalgan), Saroyi Abdullojon, Saroyi Urganch, Saroyi sangin, Saroyi sanduq, Saroyi Avazbadal, Saroyi chinni, Saroyi Ulug'bek, Saroyi Ahmadi kalla, Saroyi Ayozi, Saroyi Fathullojon, Saroyi Badalbek, Saroyi pushaymon, Saroyi shakar, Saroyi qozi kalon yoki saroyi choy, Saroyi mullo Oston, Saroyi urganji, Saroyi Zohidjon, Saroyi Mirzo Fozil, Saroyi So'xta yoki Saroyi ushturxona, Saroyi Rajabbek, Saroyi buzg'unch, Saroyi Poyi oston, Saroyi meshi, Saroyi kafsh-u mahsi, Saroyi po'sti cho'bin, Saroyi xo'rjin, Saroyi abreshim, Saroyi tamaki, Saroyi qolin, Saroyi Rajabbek, Saroyi po'sti; M.S.Yusupov yana o'nta karvonsaroy nomini keltiradi: Saroyi mayiz, Saroyi choy, Saroyi zig'ir, Saroyi anor, Saroyi g'o'za(turli matolar sotilgan), Saroyi sabzi, Saroyi g'o'lung, Saroyi angisht, Saroyi taroshi,

Saroyi kapponi birinj kabi.

Karvonsaroylar yana turli yurtlardan kelgan mehmonlar, savdogarlar uchun boshpana, mehmonxona vazifasini ham o'tagan. Karvonsaroylarga, odatda, ma'lum bir yerdan kelgan savdogar yoki musofirlarga xizmat ko'rsatgan, masalan, urganchlik savdogar yoki mehmonlarning aniq bir qo'nim makoni bo'lgan, ular uchun doimiy xizmat ko'rsatuvchi maskan vazifasini o'tagan, ya'ni ayni bir joyning odamlari uchun muntazam qo'alg'a vazifasini o'tagan. Shundan kelib chiqib, karvonsaroylar nomlangan. Xorazmlik savdogar va musofirlarga xizmat qiluvchi karvonsaroy Saroyi Urganjiho deb yuritilgan. Toshkentlik savdogarlar tomonidan asosan Toshkentning soyaki mayizlari keltirilgan va bu joy Saroyi mayizi Toshkandiho nomini olgan. Bu borada jiddiy tadqiqotlar olib borgan M.S.Yusupov Buxoro karvonsaroylarining qurilishi, undagi hujralar soni, qanday xizmatlar ko'rsatilganligi haqida ham ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Olimning mazkur ishidan anglash mumkinki, hujralar ham ma'lum bir vazifalarga ixtisoslashgan, shundan kelib chiqib, ma'lum nomlar bilan ham atalgan. Mashhur Ko'kaldosh madrasasiniga yaqin bo'lgan hududda Saroyi Jannati makon nomli ikki qavatli karvonsaroy bo'lgan, unda o'ttiz ikkita hujra mavjud bo'lib, o'n sakkiztasi birinchi qavatda, o'n to'rtta hujra esa ikkinchi qavatda joylashgan. Birinchi qavatda choy va turli xil ziravorlar sotuvchi savdogarlar qo'nim topgan, bu savdogarlar chofurushi attor, ular savdo faoliyatini olib boruvchi joy esa do'koni attoron deb nomlangan.

Yuqorida keltirilgan muassasa nomlarining qo'yilishi shaxs nomlari, sotiladigan mahsulot nomlari, qayerliklar bilan aloqalar mavjudligi asosida nomlangan. Bu nomlarning aksariyati forsiy va arabiy kalimalardan tashkil topgan. E'tibor qilinsa, saroy so'zining asl, bosh ma'nosi ham aynan shu o'rinlarda qo'llanilganligini kuzatish mumkin. O'zbek tilining etimologik lug'atida bu so'z "karvonlar to'xtab o'tadigan joy, dam oladigan keng hovli" ma'nolarini anglatgan, keyinchalik "qasr" ma'nosini ham ifodalagan. [9:208]

XVIII – XIX asrlarda Buxoro shahrida yigirmaga yaqin hammom bo'lgan. Toqi sarrofon bozori yonida sarrofon yoki Modarixon hammomi faoliyat yuritgan. Sarrofon(Modarixon), Taxi Chorbog'(mashhadi Qosim), Gavkushon, Abdulloxon,

To'qumdo'zi, Amiri bozori kafi, Misgaron kabilar erkaklar hammomi sanalgan, Xo'ja Porso, Domullo Sher, G'oziyon, Hazrati Ayyub, Kunjak, Poyi ostona, Xo'ja Habibullo (Xiyobon) kabilar faqat ayollarga xizmat ko'rsatgan. Shishaxona hammomi esa ham erkak, ham ayollarga xizmat qiluvchi hammom bo'lgan. Hammom so'zi forsiy kalmi bo'lib, Buxoroda hambom, ya'ni bir tom osti degan ma'noni anglatadi. Hammomlarning nomlanishi u joylashgan mahalla, bozor yoki uni ta'sis qilgan shaxslar nomi bilan yuritilgan.

Buxoroga turli joylardan tolibi ilmlar kelib tahsil olishgan. XX asr boshlarida Buxoroda 400 ga yaqin madrasalar faoliyat ko'rsatganligi haqida Muhammad Ali Baljuvoni ma'umot yozib qoldirgan. Madrasalar odatda, hukmdorlar, hukumatning obro'li kishilari, xalq orasida obro' qozongan ziyolilar tomonidan tashkil etilgan, ularning nomlanishi ham aksariyat hollarda ularning ismi bilan bog'liq bo'lgan. Ulug'bek, Abdulazizxon, Nodir devonbegi, Ko'kaldosh, Mirarab, Mehtar Anbar va hokazolar. Ma'lum bir madrasalarning nomlanishi u joylashgan joyga nisbatan qo'yilgan.

Fen ma'lumotlarida quyidagi madrasa nomlari keltiriladi: Mirzabek Oxun, To'raqul, Sharifjon, Muhammad Yunusbiy, Mullo Muhammad Sharif, Chuchuk oyim, Modarixon, Muzaffarxo'ja, Dor ush-shifo, Bozori go'sfand, Mir arab, Quchoq, Gavkushon, va h.k..

Bularning nomlanishida uch holat ko'zga tashlanadi:

- madrasalar shaxslar nomi asosida qo'yilgan;
- ma'lum bir bozor nomi asosida nomlangan;
- mahalla nomi bilan berilgan;
- ma'lum masjid nomi bilan bog'langan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Buxoro tarixiy ergonimlarini ikkiga ajratish mumkin:

a) muassasa, tashkilot o'tmishda mavjud bo'lgan hozirgi kunda mavjud emas, u bilan birga nom ham ishlatilmaydi.

b) muassasa yoki tashkilot hozirgi kunda ham mavjud, shuning uchun uni atovchi nom ham saqlanib qolgan; masalan, Ko'kaldosh, Abdullazizxon, Ulug'bek,

Minorayi kalon, Masjidi kalon va\_boshqalar. Bunday tashkilot, muassasalarni ma'lum birlari hozirgi kunda ham faoliyat yuritmoqda, bino hamda nomi qo'llanilsa ham faoliyat yuritmayotganlari ham mavjud. Tarixiy ergonimlar ma'lum bir yangi tashkilot yoxud muassasaga nisbatan ishlatiladi.

**Xulosa.** Demak, Buxorodagi tarixiy ergonimlar mahsulotlar, ko'rsatiladigan xizmatlar, boshqa bir obyekt yoki subyekt, tarixiy-tadrijiy omillar asosida nomlanganligi ayonlashadi. Bu bilan tariximizning ajralmas qismi sanalgan ergonimlar orqali o'tmish zamon hamda makondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotning manzarasi ko'z o'ngimizda gavdalanishiga imkon yaraladi desak xato bo'lmaydi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

Javliyev. X.Rustamova, N.Stojarova, Sh. Abdurashitova, Q.Nurmamatova. Tibbiyot tarixi. - Toshkent: O'zkitobsavdo, 2020. 216 b.

Kilichev B. Buxoro toponimlari izohli lug'ati. – Buxoro: Durdona, 2024. 147 b.

To'rayev H. Buxoro toponimikasi. – Buxoro: Durdona, 2021. 275 b

Saparniyazova M., Umurzakova C. Neyming va onomastika: ergonimlarning funksional xususiyatlari // O'zMU xabarlar. – T., 2022. №1/.7. – B. 254-257.

Saparniyazova M. O'zbek tilida ergonimlar (struktur-semantik, pragmatik va lingvomadaniy aspekt). – Toshkent: BOOKMANY PRINT, 2023. –168 b.

Monografiya

Исаев Л.М. Ришта и ее ликвидация в Узбекистане, - Труды Узбекского института малярии и медицинской паразитологии, т. II, Самарканд 1956. С. 78-96

Наршахий. Бухоро тарихи. – Т.: Kamalak, 1991.

Сухарёва О.А. Бухара – XIX- начало XX век. – Москва: Наука. 1966. С. 312

Рахматуллаев.Ш.Ўзбек тилининг этимологик луғати. III жилд. - Т.: Университет, 2009. 281б.